

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN’ATI

Abdurashid Madaliev

Durdona Mirsolieva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo‘g‘irchoq teatr san’atining qadimiy va navquronli va undagi ustoz-shogirt an’analari. Qo‘g‘irchoq teatri bolalarimizni hayot jumboqlari ustida bosh qotirishga undaydi, go‘zallik, do‘stlik, adolat, halollik, pokliq, mehnatsevarlik tuyg‘ularini o‘zida jo etib ularning yuraklarining tub-tubiga kirib ularni yaxshi tarbiyaga chorlaydigan maskan ekanligi haqida fikrlar ketgan.

Kalit so‘zlari: go‘zallik, do‘stlik, adolat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, lo‘nda, ravon, mohir.

O‘zbek an’naviy qo‘g‘irchoq teatri ham mustaqil teatr turi sifatida rivojlangan bo‘lib, uning ijrochiligidida belgilangan talablar, ma’lum qonun-qoidalar bo‘lgan. Qo‘g‘irchoq teatri ijrochiligi qoidalari teatrning boshqa turlari kabi og‘zaki xarakterga ega bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bu san’at bilan maxsus bir usta qo‘lida o‘n yillab tarbiya topib, soha sirlarini o‘zlashtirgan shogirdgina mustaqil shug‘ullangan. Tabiiyki, bu san’at turi bilan havaskorlar shug‘ullanmagan. Shogird ko‘p yillar davomida kuzatish, mashq qilish, yodlash orqali qo‘g‘irchoq boshqarish asoslarini puxta o‘rgangan. Ma’lum ko‘nikma va mohirlikka erishgach, bu sohada mustaqil faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘lgan. Qo‘g‘irchoq teatri san’ati qadimiy va boy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zining yorqinligi, maftunkorligi bilan ajralib turadi. Bu san’at voqelikni qo‘g‘irchoq personajlar orqali o‘ziga xos uslubda ba’zan jiddiy, ba’zan hazil, ba’zan esa kinoyali yo‘llar bilan lo‘nda, ravon va qiziqarli qilib ko‘rsata olish imkoniyatiga ega bo‘lgan, betakror san’at turlaridan biridir.

Taniqli olim San’atshunoslik fanlari doktori M.Qodirov qo‘g‘irchoq teatr tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlaridan birida: «Osyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak o‘yin emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir»¹, - deb ta’kidlaydi... Haqiqatdan ham o‘zbek an’naviy qo‘g‘irchoq teatri xalq ma’na-viyati va badiiy tafakkurining ajralmas qismidir. Shu bois ham bu san’at ming yillar osha rivojlanib, o‘zgarib, yangi shakl va yangi qirralar kashf etgan navqiron san’at sifatida hayotga kirib kelgan. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori rassom va qo‘g‘irchoq ustasining hamkorligida yaratilgan sahnaviy qo‘g‘irchoqlarga «jon» bag‘ishlaydi, yurak dardini, orzu umidlarini, tabiat va jonivorlarga bo‘lgan munosabatini, Ona-Vatanga bo‘lgan mehr-sadoqatini to‘sinq-shirma orqasidan turib qo‘g‘irchoq obrazlari orqali bayon etadi. Bu esa faqat shu san’at turiga xos «jonlanish» mo‘jizasidir.

Teatr sahnasida «jonlanib» tilga kirgan qo‘g‘irchoq bolalarga beqiyos zavq-shavq, ma’naviy ozuqa baxsh etadi. Bolalarimizni hayot jumboqlari ustida bosh qotirishga undaydi, go‘zallik, do‘stlik, adolat, halollik, pokliq, mehnatsevarlik tuyg‘ularini ularning yuraklariga jo etadi. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri san’ati Mustaqil O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda, yoshlarini Vatanga sadoqat, ma’naviy barkamol va har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda o‘ziga xos betakror san’atdir. Yosh tomoshabinning san’atga oshnoligi ilk bor qo‘g‘irchoq teatridan boshlanadi. Shuning uchun u bu dargoxni tez-tez qumsaydi, hal eta olmagan jumboqlarga shu dargoxdan javob topadi. Shu sababdan qo‘g‘irchoq teatri spektakllari yosh tomoshabinlarga tushunarli, janr jihatidan rayag-barang, zamon talabiga javob bera oladigan mukammal mazmunga ega, g‘oyaviy jihatidan yetuk asarlari bo‘lishi shart. Bugungi kunda Respublikamizda o‘n bitta Davlat qo‘g‘irchoq teatrлari yosh-muxlislarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Ularning repertuaridan milliy va xorijiy mualliflarining turli xil asarlari joy olgan. Teatrلamizning aksariyati respublikamizda ham, uning tashqarisida ham mashhur jamoalar hisoblanadi. Ular Amerika, Misr, Pokiston, Hindiston, Turkiya, Olmoni», Birma, Bolgariya,

¹ Кодиров М. Томоша санъати ўтмишидан лавҳалар. -Т.:Фан, 1993, 163-бет.

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya va boshqa mamlakatlarga bir necha bor safar qilib, u yerdagi tomoshabinlarni ham o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri san’ati bilan tanishtirganlar.

Bu o‘ziga xos jozibaga ega san’at turining ravnaq topishi hamda jahon qo‘g‘irchoq teatrлari orasida yanada yuqoriroq nufuzga ega bo‘lishi uchun har tomonlama yetuk, yuqori madaniyatli, o‘z kasbining mohir ustasi, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, zamon talabiga javob beradigan yuqori darajali mutaxassislar tarbiyalashdek o‘ta mas’uliyatli ish bugungi kun talabidir. Shuning uchun biz tarbiyalayotgan mutaxassislar ma’naviy va jismonan baquvvat, har tomonlama bilimli, aktyorlik kasbining turli janrlarini yuksak professional darajada egallagan, qo‘g‘irchoq-larning barcha turlarini mahorat bilan boshqara-digan, kattalar va ayniqsa, bolalar psixologiyasini chuqur his etadigan, tasviriy san’at turlari va janrlari bo‘yicha keng bilimga ega mohir san’at-korlar bo‘lib yetishmoqlari darkor. Bo‘lajak mutaxassislarda bunday xarakter xususiyatlarni tarbiyalash «Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi mahorati» darsining eng asosiy vazifasi sanaladi.

Dars jarayonida qo‘g‘irchoq teatr aktyorini tarbiyalash sohasida quyidagi yo‘nalish bo‘yicha ishlar olib boriladi:

1. Aktyorning ijod jarayonidagi o‘z ustida ishlashi (jonli plan).

2. Zamonaviy qo‘g‘irchoq turlarini o‘zlashtirish.

3. Aktyor ijodi jarayonidagi obraz ustida ishlash va uning uslublari.

4. Aktyorning qo‘g‘irchoq obraz talqini ustidagi ishi (qo‘g‘irchoq personajining plastik yechimlari)

Mazkur san’at turini to‘liq o‘rganib, o‘zlashtirish uchun sahna nutqi, raqs, pontamimo, sahna harakati, ritmika, qo‘g‘irchoq yasash va boshqarish texnologiyasi, musiqa asoslari, qo‘sinqchilik, teatr tarixi, bolalar va kattalar psixologiyasi, jismoniy tarbiya kabi darslarni ham to‘la-to‘kis o‘zlashtirish talab etiladi.

«Ko‘g‘irchoq teatri aktyorini tarbiyalash» predmeti bo‘yicha yaratilgan ushbu dastlabki darslik talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun zamon talablariga javob beradigan mutahassis-aktyorlarni tarbiyalashda sodiq ko‘makdosh bo‘lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

O‘zbek drama teatri san’ati namoyondalari Abror Hidoyatov, Mannon Uyg‘ur, Olim Xo‘jaev, Shukur Burxonov, Nabi Rahimov, Iosif Radun, Tursunboy Isroilov, Rahim Sayfiddinov, Toshpo‘lat Tursunov, Teshaboy Bayandiev, Tohir Islomov, Hamidulla Ikromov va boshqalarning ilmiy asarlari qo‘g‘irchoq teatri ravnaqiga ham o‘ziga xos ulush bo‘lib qo‘sildi.

Bu ijodkorlar o‘zbek teatri san’ati rivojiga o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shib, uni dunyoga tanitgan insonlardir.

Iso Yoqubov, Muxsin Kodirov, Tohir Mahramov, Vladimir Iogelsen, Mixail Korolyov, Vladimir Obrazsov kabi olimlar qo‘g‘irchoq teatri maktabini yaratdilar, shu yo‘nalishda ijod qilib, bu sohaning yangi-yangi qirralarini ochishda tinimsiz izlandilar. Bular qo‘g‘irchoq teatri san’atini rivojlantirib, xalqqa tanitgan va ijod maktabi, fan sohasini yaratgan ijodkorlardir.

Muxsin Qodirov qo‘g‘irchoq teatri tarixini tadqiq etishga ulkan hissasini qo‘shti. U «O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri», «O‘zbek xalq tomosha san’ati», «Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar» singari asarlari bilan o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq san’atining tarixini yaratgan olim hisoblanadi.

Vladimir Iogelsen M.Uyg‘ur nomidagi TDSIda qo‘g‘irchoq teatriga mutaxassis tayyorlash uchun maxsus kafedra ochib, unga boshchilik qildi. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri san’atini rivojlantirishda uning xizmatlari beqiyosdir.

Tohir Mahramov qo‘g‘irchoq teatrinda rejissyor ham aktyor bo‘lib xizmat qilgan. Uning teatr san’ati sohasidagi xizmatlari ulkandir. Iso Yoqubov 20 yildan ortiq o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrda yetakchi rejissyorlardan biri bo‘lgan. Bu ijodkor institutdagi «Ko‘g‘irchoq teatri san’ati» kafedrasida mutaxassislar tayyorlashda o‘z kuchini va tajribasini ayamay mehnat qildi.

Mixail Korolyov qo‘g‘irchoq teatri san’atini yaratgan birinchi ustoz olim. U dunyoda birinchilardan Sankt Peterburgda qo‘g‘irchoq teatrлari uchun aktyor, rassom, qo‘g‘irchoq ustalari, maxsus mutahassislar tayyorlash uchun kafedra tashkil qildi, o‘zi shu kafedraga uzoq yillar rahbarlik qildi. Uning shogirdlari butun dunyoda qo‘g‘irchoq san’atini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Vladimir Obrazsov Moskvada birinchilardan bo‘lib qo‘g‘irchoq teatri tashkil qilgan yetuk mutaxassis. U qo‘g‘irchoq teatriga estrada janrini kiritgan va o‘zining qo‘g‘irchoqlar konserti bilan dunyo kezib hammani hayratda qoldirgan ulkan ijodkor.

Yuqorida qayd qilingan fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, qo‘g‘irchoq san’ati maktabi boy tarixga, ko‘p qirrali ijodiy izlanishlarga, mukammal san’at maktabiga egadir.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
2. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
3. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
4. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san’atining o‘ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
5. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director’s work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
6. Хатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомилаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
7. Болтабоева, У., & Деконов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
8. Болтабоева, У. (2020). ҚЎФИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУХЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
9. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
10. Эргашев, К., & Boltaboeva, U. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛAR НИГОХИДА. Oriental Art and Culture, (6).
11. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
12. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.
13. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.
14. Abdunazarov, Z. (2021). Hamza hakimzoda niyoziy dramaturgiysi. Oriental Art and Culture, 2(3), 170-178.
15. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
16. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 788-792.
17. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Culture. International Journal of Culture and Modernity, 11, 76-82.
18. Boltaboeva, U., Andunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2902-2905.
19. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 57-61.
20. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN’ATINING O’RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. Oriental Art and Culture, (6).
21. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the system of Higher Education. European Journal of Arts, (1), 125-128.
22. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
23. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 24-31.

24. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O'RNI. Интернаука, (19-4), 55-56.
25. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. Oriental Art and Culture, (IV).
26. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1973-1977.
27. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 77-80.
28. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. Hordo Structures in Central Asian Architecture.
29. Болтабоева, У., & Деконов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
30. Деконов, Р. (2020). СОГЛОМ АВЛODLARNI ШАКЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЬАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. Oriental Art and Culture, (V).
31. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 37-43.
32. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎФИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЬАТИ МАСАЛАЛАРИ. Oriental Art and Culture, (7), 37-48.
33. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. Oriental Art and Culture, (7), 49-57.
34. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. Oriental art and culture, 2(3), 125-133.
35. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. Oriental Art and Culture, (6).
36. Умарова, X., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. Oriental Art and Culture, 2(3), 76-87.
37. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. Oriental Art and Culture, 2(3), 114-124.
38. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 118-124.
39. Фофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, (V).
40. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИННИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. Oriental Art and Culture, (V).
41. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. Oriental Art and Culture, (V).